

# MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHNING VAZIFALARI

## TASKS OF IMPLEMENTATION OF PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM REFORM

### ЗАДАЧИ РЕАЛИЗАЦИИ РЕФОРМЫ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**JDPI magistranti Yakubova Maftuna**

#### **Annotatsiya**

Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish zarurligi va vazirlikning vazifalari Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblangan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muxim o'rin tutadi

#### **Аннотация**

Необходимость реформирования системы дошкольного образования и задачи министерства Известно, что дошкольное образование, являющееся началом непрерывного образования, играет важную роль в здоровом развитии детей и их подготовке к систематическому обучению.

#### **Annotation**

The need for reform in the pre-school education system and the tasks of the ministry It is known that pre-school education, which is the beginning of continuing education, plays an important role in the healthy growth of children and their preparation for systematic education.

**Keywords:** promotion, ministry, responsibilities, continuing education, elementary school.

**Kalit so'zlar:** oshirish, Vazirlik, vazifalari, uzluksiz ta'lim, boshlang'ich qismi.

**Ключевые слова:** продвижение по службе, служение, обязанности, непрерывное образование, начальная школа.

O'zbekistonda bugungi shiddat bilan modernizatsiya, global rivojlanish kechayotgan bir jarayonda davlat tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish orqali boshqarishining ahamiyati juda muhimdir. Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmokda.. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish zarurligi va vazirlikning vazifalari Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi xisoblangan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muxim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining Yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yil 30 sentyabrda —Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish haqidagi PQ - 3305-sonli farmonni imzoladi. Hujjatda Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Ushbu farmonni qabul qilinishiga va maktabgacha ta'lim tizimida islohatlar amalga oshirilishiga nima sabab bo'ldi? degan savolga javob berishdan boshlaymiz. 10 Bugungi kunda O'zbekiston hududlarida etarli darajada xususiy o'quv markazlari tashkillangan. Ularning juda katta qismida, abituriyentlarni tayyorlash kurslari, til kurslari, qizlar uchun hunar kurslaridan tashqari, bolalarga maktabgacha ta'lim berish kurslari («pochemuchka») mavjud. Bundan tashqari, faqat maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishga ixtisoslashgan xususiy maktab va o'quv markazlari ham mavjud. Joylardagi aholisining taxminan 70– 80 foizi etnik o'zbeklar bo'lgan holda, maktabgacha ta'lim markazlariga qatnovchi bolalarning 80 foizi esa etnik rus, koreys, tatar, shuningdek, rusiyzabon o'zbek oilalari vakillaridir.

Ya'ni, maktabgacha ta'lim masalasida teskari statistikasi kuzatish mumki, ya'ni o'zbek oilalari bolalari qamrab olinmagan.

Umuman olganda, joylardagi aynan rusiyzabon aholisi 4–6 yoshdagi bolalarini o'qitib, maktabga alohida tayyorlashga moyilligi yuqoridir. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan xolda shuni aytish mumkin-ki, davlatimizning maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: O'zbek oilalarining xususiy o'quv marazlariga ishonmasliklari; O'zbek oilalarining moliyaviy ahvoli xususiy o'quv marazlariga to'lash darajasini qoplay olmasliklari. Shuning uchun ham o'zbek oilalari farzandlarini ko'proq davlat MTMlariga (maktabgacha ta'lim muassasalari, ya'ni bolalar bog'chalariga) ishonib topshiradi. Rasmiy talabga muvofiq, bog'chada ham bolalarga o'qishyozish, chizish, matematika asoslari, shuningdek, rus va ingliz tilidan nimadir o'rgatilishi kerak. O'tgan davrda MTMlarining katta qismi, afsuski, amalda bu talabga javob bermasliklari aniqlangan. Narxlarga kelsak, Davlat bog'chalarida bola haftasiga besh kun bo'lad, buning evaziga davlatga 110–120 ming so'm to'lanadi. Xususiy o'quv markazlari haftasiga ikki kun, odatda shanba va yakshanba kunlari bolalarni qabul qiladi va ular bilan jami 3–6 soat shug'ullanadi. Buning evaziga qilinadigan to'lov — 120–200 ming so'm. Maktabgacha ta'lim tizimidagi sifatni pastligiga ta'sir etuvchi omillar: O'z xarajatlarini qoplay olmasliklari; Xodimlarning moddiy ta'minotiga nisbatan rag'batning yo'qligi; Bolalarning oziq-ovqatining sifatini pastligi; O'yinchoqlarning sifatini pastligi O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, moddiy nuqtai nazardan davlat bog'chalari aholi uchun manfaatli, lekin o'z xarajatlarini ko'tara olmaydi, bu xodimlarning moddiy ta'minotiga, bolalarning oziq-ovqati, o'yinchoqlari va boshqa narsalarning sifatiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Foyda keltirmaydigan muassasada xizmat sifati ham tushib ketaveradi. Lekin aholining katta qismi baribir farzandlarini bog'chaga ishonib topshiradi: birinchidan, hamma ham haftasiga 3–6 soat o'tkazilgan mashg'ulot uchun 200 ming so'm to'lashni xohlamaydi yoki moddiy imkoniyati etmaydi, ikkinchidan, hamma oilada ham ish kunlari soat 9:00dan 18:00gacha yosh bolalarga qarab turadigan odam topilmaydi. Yangi tashkil etilgan vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri

maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiradi. Farmonda aytilishicha, oxirgi 20 yil ichida maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) soni 45 foizdan ko'proqqa qisqarib ketgan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalari tomondan qamrab olinishi 30 foizga yaqinni tashkil etadi. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari ichida O'zbekistonda o'zaro raqobatlashuvchi davlat va nodavlat MTMlari tarmog'ini yaratish hisobiga bolalarning maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olinishini bosqichmabosqich ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim rahbarlari va pedagogik xodimlarini zamonaviy texnologiyalar va metodlar negizida qayta tayyorlash va "bolalarni tarbiyalash bo'yicha munosib sharoitlar"ni yaratish rejalashtirilgan. Yuqoridagi farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizom hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi. Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir

## **XULOSA**

Bugungi kunda Dastur spetsifik xususiyati uning insonni butun umri davomida ta'lim jihatdan tayyorlashning barcha bosqichlari va bo'g'inlarini o'z ichiga oluvchi uzluksiz ta'lim tizimiga yo'naltirishida mujassamlashgandir. Birinchi bosqichda yaqin o'tmishdagi amaliyotga xos bo'lgan barcha uzilishlarni bartaraf etgan holda maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, boshlang'ich va o'rta professional ta'lim kichik tizimlari doirasida uzluksiz ta'lim tizimini barpo etishga va takomillashtirishga e'tibor

berilmoqda. Deyarli barcha mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham davlat byudjeti, shubhasiz, ta'limni moliyaviy ta'minlashning bosh manbaidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2012. – 46 b.  
2.O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 1997.

4.O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi». Toshkent, 21.12.1996.  
5.O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik Kodeksi». Toshkent: 199 5yil 21 dekabrda  
163-I-son va 1996 yil 29 avgustdagi 226-I-son qonunlari bilan tasdiqlangan va  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 29 avgustdagi 257-I-son qarori  
bilan 1997 yil 1 martdan kuchga kiritilgan.

6.O'zbekiston Respublikasining «Davlat va xususiy sherikchilik  
to'g'risidagi Qonuni loyihasi, 2017. II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
farmonlari va qarorlari